

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O'YIN JARAYONI BOLA RIVOJLANISHIDA MUHIM FAOLIYAT SIFATIDA

Imamova Nilufar Zabiyxulla qizi,

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lism metodikasi kafedrasini p.fff.d.

(PhD), dotsent v.b., Imamova9097@gmail.com

Bugun maktabgacha ta'lism sohasi davlat ta'lism siyosatining muhim bo'g'iniga aylangan. Maktabgacha ta'limda qamrovni kengaytirish, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning malakasini oshirish, oliy ta'lism diplomiga ega pedagoglar sonini oshirish, har yili maktabgacha ta'lism tashkilotlarini yangi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash kabi islohotlarni shuning isboti sifatida ko'rish mumkin.

Maktabgacha bo'lgan yosh davri inson rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Bolalar shu davrda ilk ko'nikma va malakalarni egallaydilar, insonlar bilan o'zaro muloqotga kirishadilar, ilk moslashuv davrini boshidan kechiradilar, harakter shakllanishi va mehnatga bo'lgan munosabat ham aynan shu davrda shakllanib rivojlanib boradi.

Inson xayoti davomida turli faoliyat turlari yetakchi hisoblanadi, bolalik davrida esa o'yin faoliyati yetakchi faoliyat turidir.

O'yin bolalarga ta'lism - tarbiya beruvchi, refleksiv tafakkurni rivojlantiruvchi vositadir. Umuman olganda o'yin bola shaxsini rivojlantiradi, bola ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'yin bolalarning rivojlanishida juda muhim o'rinn tutadi.

Bundan tashqari o'yin bolaga ta'lism beradi, tarbiya beradi, jamoada o'zini qanday tutishni o'rgatadi, ijtimoiylashtiradi, nutqini o'stradi, intellektini oshiradi va xokazo.

A.S.Makarenko ta'rifida bolalarning hayotida o'yin kattalarning faoliyati, mehnatining ahamiyati bilan tenglashtirilgan. Bola o'yinda o'zini qanday tutsa katta bo'lganida ham shunday bo'ladi degan nazariyani ilgari surgan, demak, o'yin kichkina odamchaning katta bo'lganida qanday bo'lishini ham prognoz qiladi. O'yin nafaqat kichik yoshdagagi bolalar uchun ahamiyatligina bo'lib qolmay kattalar uchun ham jozibadordir. Umuman olganda, u hordiq chiqarish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

O'yin bolalar hayotida muhim rol o'ynaydiki, unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, atrofi-olam haqida fikrlash, zavqlanish, dam olish barchasi birlashib ketadi. Shunung uchun ham o'yin bolalar va kattalar uchun jozibadordir.

Qadimgi greklarda o'yin so'zi bolalarga hos faoliyat turi va u davrlar mobaynida faqat xalqning kichik vakillariga yetkazib beriladi degan mazmunda tushunilgan. Yaxudiyarda o'yin-kulgi va xazil mutoyiba tushunchasi sifatida tushunilgan. Rimliklardada "ludo", sanskrit tilida "klyada" – xursandchilik va o'yin kulguni ifodalaydi. Nemislarda qadimgi nemis tilida "spilan" so'zi yengil to'lqinli yoki

mayatniksimon harakatni ifodalaydi va bu insonga zavq beruvchi xisoblanadi. Rus tilida “igra” – bolalar mashg’uloti bilan birgalikda sahnada rol o’ynash holati ham tushuniladi.

O’yin nazariyasining rivojlanishi XIX asrda F.Shiller, G.Spenser, V.Vundt nomlari bilan bog’liq. O’zlarining falsafiy, estetikaga va san’atga oid qarashlari asnosida o’yinni inson faoliyatining muhim ko’rinishi sifatida tushunib uning kelib chiqishini san’at bilan bog’lashadi. F.Shiller shaxsning estetik tarbiyasi haqidagi maktublarida shunday yozgan edi: “To‘g’ri, tabiat jonivorlarga o‘z ehtiyojlaridan tashqari imkoniyatlar hadya qilib, qorong‘u hayvonot dunyosiga erkinlik yog’dusini sochgan. Arslon ochlikdan ovga chiqmasa yoki boshqa yirtqich uni jangga chaqirmsa, arslondagi foydalanimagan kuch o’zidan o’zi mustaqil ob’yektga aylanadi: sher cho’lni kuchli bo’kirish bilan to’ldiradi va kuchini maqsadsiz sarflashdan zavqlanadi. Hasharot quyosh nurida hayotdan zavqlanib, uchib yuradi va biz uning hayajonli tovushlarini farqlay olmaymiz. Shubhasiz, bu harakatlarda biz erkinlikka egamiz, lekin umuman ehtiyojdan emas, balki faqat o’ziga xos, tashqi ehtiyojdan. Hayvon biror narsaning yetishmasligi uning faoliyatiga turtki bo’lgan sabab bo’lganda ishlaydi va ortiqcha kuchini zavqlanishga, o’z-o’zini rag’batlantirishga sarflaydi. (1935, 237 b.).

Yuqorida berilgan iqtibos Shiller o’yinni ortiqcha kuch to’planganligi nazariyasini yaratganiga ishora qiladi, lekin bu uning qarashlariga to’liq mos kelmaydi. Uning uchun o’yin, aksincha, tashqi ehtiyojlardan xoli, ortiqcha hayotiylikning namoyon bo’lishi bilan bog’liq bo’lgan zavqdir. Shiller uchun o’yin estetik faoliyat hisoblanadi. Tashqi ehtiyojlardan xoli kuchning ortiqcha bo’lishi, Shillerning fikricha, o’yin orqali etkazib beriladigan estetik zavqning paydo bo’lishining shartidir.

G.Spenser ham o’z qarashlarida alohda o’yinga muhim e’tibor qaratmagan lekin uning qarashlari ham Shillerniki kabi bo’lib ortiqcha kuch va estetik zavqlanish kabi nazariyani ilgari surgan. O’yinga bo’lgan ehtiyoj impulsining kelib chiqishi haqidagi savolni o’rganib chiqib, G.Spenser o’z nazariyasini ishlab chiqadi: «Hayvonlarda ularning hammasiga xos bo’lgan shu xususiyat borki, ularning barcha kuchlari hayot uchun zarur bo’lgan ishlarni bajarishga sarflanadi. Ular doimiy ravishda oziq-ovqat qidirish, dushmanlardan qochish, boshpana qurish va avlodlari uchun boshpana va oziq-ovqat tayyorlash bilan band. Ammo samarali yoki muvaffaqiyatli va ko’p sonli qobiliyatlarga ega bo’lgan hayvonlarning yuqori turlariga ko’tarilganimizdan so’ng, biz ularning vaqtি va kuchi bevosita ehtiyojlarni qondirish uchun to’liq so’rilmasligini tushunamiz. Yaxshiroq ovqatlanish, yuqori tashkilotning natijasi, ba’zan bu erda ortiqcha kuchni ta’minlaydi ...

Shunday qilib, yuqori darajada rivojlangan hayvonlarda sodir bo’ladigan holat bu zarur bo’lgan energiya har qanday holatda ham tez-tez ehtiyojlardan ortiqcha bo’lib chiqadi. Ko’pincha ularda ma’lum bir sarflanmagan qoldiq paydo bo’ladi, bu esa sarf-

xarajatlardan keyingi tiklashga ushbu quvvatni dam olish vaqtida yuqori samaradorlik yoki muvaffaqiyat holatiga keltirish imkonini beradi" (1897, 13-14b.)

Spenserning fikricha, o'yin va estetik faoliyat o'rtasidagi farq shundaki, o'yinda faqat quyi qobiliyatlar, yuqori qobiliyatlar esa estetik faoliyatda namoyon bo'lishidadir. Yuqorida keltirilgan nazariyalar o'yin nazariyasining tizimli ko'rinishi xarakteriga ega emas edi. Ular faqat estetik faoliyatning paydo bo'lishi kontekstida o'yin tabiatini ko'rib chiqish maqsadini amalga oshirganlar. V. Vundt o'yinning kelib chiqishini tushuntirib berishga juda yaqin keldi. Biroq u o'yin manbai zavqdir deb hisoblagan. V. Vundt aytgan fikrlar tizimlashtirilmagan. "O'yin - mehnatning bolasi", deb yozgan edi u.

Hayvonlar va insonlar mashg'ul bo'ladigan o'yin faylasuflar, pedagoglar va psixologlar uchun uzoq vaqtdan beri qiziqish uyg'otib keladi, ammo u faqat XIX asrning oxiridagina maxsus psixologiyaning tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Italiyalik olim D. A. Kolozsa bolalar o'yinlari haqidagi materiallarni tizimlashtirishga harakat qilgan. U oz kitoblarida bolalar o'yinining psixologik va pedagogik ahamiyatini ohib berishga uringan. "Yuqori rivojlangan mavjudodlar ya'ni odamlarda yashash uchun kurash xayvonlarchalik qiyin va shavqatsiz emas. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar onasidan yoki boshqa yaqinlaridan yordam, himoya va g'amxo'rlik topadilar. Bolalarning hayoti asosan kattalarning mehnati va g'amho'rliklari bilan qo'llab quvvatlanganigi ularning oziq-ovqat olish uchun ishlatilishi shart bo'limgan kuchlari o'yin tarzida namoyon bo'ladi.

Xuddi shu narsani biz odamlar hayotida, ayniqsa yaxshi rivojlangan jamiyatlarda ko'proq kuzatamiz. Bolalarga mustaqil yashash imkoniyatini qo'lga kiritish uchun yillar kerak bo'ladi va undagi ortiqcha kuch zahira sifatida to'planadi. Bola endi ishlay boshlaganida ham, uning ehtiyojlari va harajatlari asosan yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shuning uchun u har doim ortiqcha energiyaga ega bo'lib, uni o'ynashga sarflaydi yoki shu tufayli, Spenser o'zining "Sotsiologiya" asarida yozganidek, o'zining qobiliyatlarini o'yin deb ataladigan mashg'ulotlarda mashq qildirishadi.

Uy mushuklarining o'yinini tasvirlab, Kolozsa shunday yozgan: "Tez orada mushukchalar dumalab yuradigan, yuguradigan, emaklab yuradigan va uchadigan hamma narsaga qiziqadilar va bu narsa kelajakda sichqon va qushlarni ovlashga tayyorgarlik bosqichi bo'lib hisoblanadi" (1939, 27-bet). Kolozsa va undan oldin G. Spenser tomonidan bildirilgan kelajakdagi jiddiy faoliyatni kutish sifatidagi o'yin haqidagi bu fikr K. Groos tomonidan o'zining o'yin nazariyasi uchun asos sifatida ishlatilgan.

K. Groosning o'yin nazariyasi juda yaxshi ma'lum va XX asrning birinchi choragida keng tarqalgan. Groos unga eng umumiyl xususiyatlarni berib, uni jismoniy mashqlar yoki o'z-o'zini tarbiyalash nazariyasi deb ataydi. K. Groos «mashq nazariyasi»ning asosiy g'oyalarini quyidagi qoidalarda belgilaydi:

1) har bir tirik mavjudotda uning xatti-harakatining maqsadga muvofiqligini beradigan irsiy moyillik mavjud; Eng yuksak rivojlangan hayvonlar orasida ularning organik tabiatining tug'ma xususiyatlariga o'sish davrida o'ziga xos kuch bilan namoyon bo'ladijan harakatga bo'lgan impulsiv intilish kiradi...

2) yuqori tirik mavjudotlarda, ayniqsa, odamlarda tug'ma reaksiyalar, ular qanchalik zarur bo'lmasin, murakkab hayotiy vazifalarni bajarish uchun yetarli emas, shu sababli ham o'yin orqali olinadigan yangi bilimlar hayoti davomida kerak bo'ladi;

3) har bir oliy mavjudotning hayotida bolalik, ya'ni o'z hayotini mustaqil ravishda ta'minlay olmaydigan rivojlanish va o'sish davri bo'ladi; bu davrda ota-onasi qaramog'i yordamida amalga oshiriladi bu esa o'z navbatida, tug'ma moyilliklarga asoslanadi;

4) bolalikning bu davri hayot uchun zarur bo'lgan, ammo tug'ma reaksiyalardan to'g'ridan-to'g'ri rivojlanmaydigan moslashuvlarni o'zlashtirishga imkon beradi; Shuning uchun odamga ayniqsa boshqa jonzotlarga nisbatan uzoqroq bolalik beriladi;

5) bolalik davrida bo'lishi kerak bo'lgan moslashuvlarning rivojlanishi har xil bo'lishi mumkin. Ularni rivojlantirishning ayniqsa muhim va tabiiy usuli shundaki, irsiy reaksiyalar faoliyatga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq holda namoyon bo'lishga intiladi va shu tariqa o'z-o'zidan yangi yutuqlarni keltirib chiqaradi, shuning uchun olingan ko'nikmalar tug'ma reflekslardan yuqori shakllanadi;

6) moslashuv rivojlanishining bu turi insonning tug'ma taqlid qilish istagi yordamida keksa avlodning odatlari va qobiliyatlar bilan chambarchas bog'liqdir;

(1916, 70-71-betlar).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faolligini rivojlantirish zarurati XX asr boshlarida maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishida o'yinning roli bo'yicha tadqiqotlar bilan tasdiqlangan (L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojets, A.N.Leontiev, D.B.Elkonin va boshqalar). Ilk marotaba bolalar o'yinlari nazariyasini yaratish vazifasini L.S. Vigotskiy o'yinni o'yinchoqlar yoki o'yinchoqlarning o'rnini bosuvchi narsalar bilan bajariladigan avval oddiy keyin esa aqliy salohiyatgacha funktsional rivojlanishiga asoslangan amaliyoti deb hisoblagan. V.A. Petrovskiy esa o'yinni maktabgacha yoshdagи bola uchun "faoliyatning o'ziga xos shakli" deb yozgan.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan xujatlarda ham o'yinning bola hayotida muhimligi belgilangan, dunyo miqyosida o'yin ahamiyatini ochib beruvchi kashfiyotlar qilinayotganligi biz bu faoliyat turiga alohida ahamiyat berishimiz lozimligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Djamilova N. Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. T: "Fan va texnologiyalar". 2018 y.

2. Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o'rnatish. Darslik. "Metodist nashriyoti", 2023.
3. Pedagogika. // M.To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.-T.:O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
4. Uruntaeva G.A. Doshkolnaya psixologiya: Ucheb. posobie dlya stud.sred. ped. ucheb. zavedeniy. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2001.
5. M.A. Abdullayeva O'yin mashg'ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish. "Fan va texnologiya" 2016
6. Джамилова, Н. Н., & Имамова, Н. З. (2018). Развитие инициативности у будущих студентов на основе компетентностного подхода. In *Исследование различных направлений современной науки* (pp. 201-204).
7. Джамилова, Н. Н., Имамова, Н. З., & Захарова, О. С. (2018). ОРНАМЕНТАЛЬНО-ДЕКОРАТИВНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ. В состав редакционной коллегии и организационного комитета входят, 204.
8. Imamova, N. (2022). PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA MUSTAQIL FAOLIYATNING AXAMIYATI VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 676-679.
9. Sadikova, D. K., & Mansurova, A. M. (2023). Study of Foreign Experience in The Application of Steam Technologies in Preschool Education. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 1(2), 162-167.
10. Sadikova, D. K. (2023). ORGANIZATION OF CREATIVE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION. European International Journal of Pedagogics, 3(02), 31-35.
11. Abzalxanova, S. M. (2024). BO 'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 44(10), 37-40.
12. SHeraliyevna, O. X. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SUHBAT QURISH O 'RGALI NUTQINI O 'STIRISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.
13. Artikbayeva, A. A. (2023). BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPENTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING AHAMIYATI. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 186-190.
14. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(7), 676-679.
15. Imamova, N. Z. (2022). DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 317-321.